



## Approaches to the education of creative activity in students Annotation

Feruza KHUSANOVA<sup>1</sup>

Namangan State Pedagogical Institute

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 15 December 2024

Available online

25 January 2025

**Keywords:**

creative activity,  
intellectual,  
social activity,  
creator,  
creative imagination,  
education,  
verbal,  
verbal influence.

### ABSTRACT

This article presents concepts for enhancing the quality of qualitative assessment of students' creative activities through clubs. It incorporates the ideas of prominent thinkers on fostering creativity in students and is grounded in the principle of methodological integration. The study also draws on modern pedagogical approaches designed to develop students' creative potential.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss6-pp122-127>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Talabalarda yondashuvlar

## ijodiy faollikni tarbiyalashga oid

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarda ijodiy faollikni tarbiyalashga oid mutaffakirlarni fikrlarini inobatga olgan holda, ularning ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlarga metodik jihatdan integratsiyalash va rivojlantirish tamoyiliga ko'ra talabalarni to'garaklar orqali ijodiy faolligini kvalimetrik baholash sifatini optimallashtirish asosida takomillashtirishga oid tushunchalar ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:**

ijodiy faollik,  
intellektual,  
ijtimoiy faollik,  
ijodkor,  
ijodiy tasavvur,  
tarbiya,  
verbal,  
verbal ta'sir.

<sup>1</sup> PhD, Lecturer, Namangan State Pedagogical Institute. E-mail: [xusanovaferuza42@gmail.com](mailto:xusanovaferuza42@gmail.com)

# Подходы к воспитанию творческой деятельности студентов

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

творческая деятельность, интеллектуальная, социальная деятельность, творец, творческое воображение, воспитание, вербальное, речевое воздействие.

В данной статье, опираясь на взгляды ведущих мыслителей в области воспитания творческой активности учащихся, рассматриваются концепции повышения качества оценки их творческой деятельности. Особое внимание уделено организации кружковой работы, основанной на принципах методической интеграции и современного педагогического подхода, направленных на развитие творческой активности учащихся.

## KIRISH

Respublikamizda so'nggi yillarda xalqimizning milliy hamda madaniy an'analari, qadriyatlariga daxldor tushunchalarni kelajak avlodga yetkazish, talabalarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish"[1] ustuvor vazifalar etib belgilandi. Natijada, talabalar bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etishga o'rgatish, jumladan, talabalarni to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "...maqsadimizga erishish, yangi demokratik jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri qanday intellektual kuchlarga egaligimizga, yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga, qanday ideallarga e'tiqod qilishga, ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liqdir".

2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari [2], O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni[3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"[4] qarori hamda shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni tarbiyalashga oid yondashuvlar va ularning bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tafakkurini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham yetakchi o'rin tutadi.

Talaba shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega:

Birinchi, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi; ikkinchi esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi.

Talabalarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon mazmuni ustida ishlash va tarbiyaviy jarayon sub'ektlarining o'zligini namoyon qilishlarida katta imkoniyatlarga ega. Shaxsning ijtimoiy faolligini shakllantirish uzluksiz davom etadigan ijtimoiy pedagogik jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini tatqiq qilish va aniqlash alohida

ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqot doirasida ushbu masalaning tarixi, rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va har tomonlama tahlil qilish talab etiladi. [7],

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ilmiy adabiyotlarning tahlil qilinishida o'z ajdodlarining fikrlarini qo'llab-quvvatlagan Jaloliddin Davoniy asarlarida insonni ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etadi. Inson faqat jamiyatda, kishilar orasida ular bilan birgalikda tashkil etilgan munosabatlar jarayonida faollashadi, degan fikrni ilgari suradi.

Davoniy asarlarida bola yaxshi fazilatlarni ta'lim-tarbiya natijasida egallashi qayd etilgan. Olim inson o'ta ta'sirchan va taqlidchan bo'lishini ta'kidlar ekan, yaxshi fazilatni ham, yomon fazilatni ham tezda qabul qilishi mumkinligini alohida uqtirib o'tadi. Davoniy inson qalbini naqsh solinadigan, suratlarini osonlikcha tushirish mumkin bo'lgan taxtaga o'xshatadi. Davoniyning fikricha, bolaning ta'lim-tarbiya natijasida odob-axloqli bo'lishi uning keyingi istiqboldagi taraqqiyotini belgilaydi. Chunki inson har kuni ko'radigan, muloqotda bo'ladigan odamlar va buyumlar uning xulqiga ta'sir etadi. Uning ta'kidlashicha, ota va ona bola tarbiyasi uchun bab-baravar mas'uldirlar [8].

Davoniy ma'rifat, ilm egalarining davlatni boshqarishda tutgan o'rniga katta ahamiyat beradi, uning fikriga ko'ra haqiqiy olim davlat ishlarida faol qatnashishi, jamiyatga foyda keltiradigan muammolarni yechishda ishtirok etishi kerak. Davlat hamda jamiyatga foyda keltiruvchi kishilarni shijoatli faol kishilar deb biladi. Uning fikricha, har qanday ehtiyoj, har qanday faoliyat shijoat sanalavermaydi, davlat manfaatlariga bo'ysunadigan, kishilik jamiyatiga xizmat qiladigan inson faoliyatigina shijoatdir. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, Davoniyning insoniy fazilatlarga ega bo'lishda ijtimoiy faollikning o'rniga katta ahamiyat berganligini alohida e'tirof etish kerak[8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Fan - texnika va texnologiyalar jadal sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan hozirgi sharoitda respublikamiz xalq xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirish, sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ijodiy fikrlovchi, ijtimoiy faol, muammolarning yangi yechimlarini doimiy izlovchi ijodkor, ma'naviy barkamol shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Bu borada uzluksiz ta'lim talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish va ularni o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish imkoniyatlariga ega bo'lgan yetakchi bo'g'in sanaladi.

Ijtimoiy faollik muhim shaxsiy sifat bo'lib, jamiyat ravnaqi yo'lidagi g'oyaviy, siyosiy, kasbiy-madaniy va fuqarolik mas'uliyatining qonuniy ifodasi hisoblanadi. Ijtimoiy yetuk shaxsning muhim sifalaridan biri uning faolligi hisoblanadi. Faollik shaxsning xislati sifatida uning ijtimoiy xulq-atvorini ifoda etadi. Shu bois talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish uchun eng avvalo ular hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish, tarbiyaviy vazifalarni ko'zda tutgan holda tevarak-atrofdagi muhitni yo'lga qo'yish, "bolada mustaqillik, iroda sifatleri, kuzatuvchanlik va aqliy dadillikni paydo qilish, bu sifatlarni turli vositalar bilan tarbiyalab borish lozim. [7].

Buning uchun pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va muvofiqlashtirish, shuningdek ish faoliyatida talabalar jamoasida ijobiy o'zaro munosabatlarni o'rnatishni, talabalarning o'z ishi va ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etishni, ularni kun tartibiga rioya qilishga odatlantirishni, talabalarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishni ta'minlashi zarur. Ko'rinib turibdiki, ijtimoiy faollikni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogika asosida talabalarning imkoniyatlari va kuchlarini to'g'ri baholay bilish, bajarilishi zarur bo'lgan topshiriqlar to'g'risida ko'rsatmalar bera olish va uning natijasini nazorat qilib borish faqat dars jarayonida emas, balki darsdan

tashqari vaqtlarda ham talabalarni uyushtira olishning mavjud bo'lishidir. Mukammalligi o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi faolligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'qituvchi faolliigi, unda tashkilotchilik kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va muvofiqlashtirish mexanizmlarining mavjudligi xalq pedagogika asosida talabalarni ijtimoiy faollashtirish jarayonini tashkil etishni, talabalar jamoasini jiplashtirishni yengillashtiradi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati unda qo'llanilayotgan metodlar bilan birga ta'lim vositalarining samaradorligiga ham bog'liqdir. Ma'lumki, metodlar bir necha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ular o'z navbatida kichik guruhlarga hamda ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. To'garak faoliyatining tashkil etilishi, o'quv axborotining berilishi, uning qabul qilinishi [9], tushunilishi, anglanishi, yodda saqlanishi, olingan va o'zlashtirilgan bilimlarning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlash, amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qilishiga ko'ra ta'lim metodlari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

– verbal (o'quv axborotlarni so'z bilan ifodalash va eshitish orqali qabul qilish metodlari, og'zaki metodlar – hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar);

– o'quv axborotini ko'rgazmali uzatish, ko'rish orqali tasavvur qilib, qabul qilish metodlari (ko'rgazmali metodlar – namoyish qilish, tasviriy va boshqalar);

*Verbal ta'sir* - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar so'zlardir.

Ma'lumki, nutq bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

Ko'rgazmali qurollar boshqa fanlar kabi ona tili o'qitishda ham keng qo'llaniladi. Ko'rgazmali qurollar, bir tomondan, o'qituvchi bayonining isboti, tasdig'i bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, berilayotgan ma'lumotlarni talabalar tomonidan tez va sifatli o'zlashtirilishiga sabab bo'ladi. O'qituvchining bayoni har qancha to'liq bo'lganda ham o'quvchilarning voqealar to'g'risidagi tasavvurlari to'la bo'lmaydi.

Talabalarining ko'rsatilgan rasmlarni to'g'ri tahlil qilishlari, ularga qarab gaplar tuza olishlari, bog'lanishli matn yaratishlari, rasmga qarab hikoya qila olishlari ona tili mashg'uloti uchun muhim sanaladi. Ular e'tiboriga havola qilingan rasmlar talabalar nutqining, e'tiborining, kuzatuvchanligining, ijodiy tasavvur etish qobiliyatining o'sishida, mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojida, aqliy va estetik tarbiyasida ularda muhim amaliy malaka va iqtidor hosil bo'lishida yordam beradi[9].

**Tahlil va natijalar.** Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda talabalar ijtimoiy faolliigi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. Talabalarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi. Talabalarda ijtimoiy faollikni tarbiyalash umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayon mazmuni ustida ishlash va tarbiyaviy jarayon subyektlarining o'zligini namoyon qilishlarida katta imkoniyatlarga ega.

Ma'lumki, xalq pedagogika asosida talabalar ko'p narsalarga qiziqтира bo'ladi, ular doim yangi tarixiy, badiiy kitoblar, milliy kinofilm, seriallarga bunga misol bo'lishi mumkin. Ular mamlakatimizdagi ijtimoiy o'zgarishlar, yangiliklar, sodir bo'layotgan voqeahodisalarga bilan qiziqish bilan qaraydilar, o'z fikr-mulohazalarini o'qituvchilari bildirgan fikrlarga solishtirib ko'radilar. Agar talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga o'qituvchidan

ishonarli javob ololmasalar unga nisbatan ishonch va hurmatni yo'qotadilar, natijada tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish samaradorligi pasayadi. Shuning uchun xam to'garaklar asosida talabalarni ijtimoiy hayotga qiziqishlarini ortirish imkon qadar foydaliroq.

Bilamizki, kundan-kunga talabalarni ijtimoiy hayotda ommaviy axborot vositalarining o'zni kengayib bormoqda. Barcha talabalar televideniya, radio, internet, kundalik matbuot, kino teatr kabi axborot vositalaridan xilma-xil ma'lumotlarni oladilar. Ularda olgan ma'lumotlari yuzasidan savollar paydo bo'ladi. Shu tariqa ularni faolligi ortib boradi, ya'ni faol talaba xisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi hamisha ijtimoiy voqea-hodisalardan xabardor bo'lib turishi, adabiyotni, san'atni sevishi, ta'lim sohasidagi eng so'nggi yutuqlarni, yangi tadqiqotlarni kuzatib borishi bilan birga to'garaklar asosida talabalarining faolliklariga ijobiy ularning o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Tahlillar jarayonida shu narsa aniqlandiki, kishilik jamiyati taraqqiyotida shaxsning faolligini oshirish asosida to'garaklar asosida ishtirokchisiga aylantirish muammosi uzoq yillar davomida ajdodlarimizning e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Mazkur g'oyalar hozirgi milliy istiqloq davrida ham muxim ahamiyat kasb etmoqda.

Talabalarining ijodiy faoliyatini tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Talabalarining turli faoliyat turlariga qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlash.

2. Har bir talabalarining tanlangan sinfdan tashqari mashg'ulotlar sohasida individual rivojlanishi uchun sharoit yaratish.

3. Tanlangan ijodiy faoliyat yo'nalishi bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalari tizimini shakllantirish.

4. Ijodiy faoliyat tajribasini, talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Ularning ta'lim faoliyati turli xil qiziqish uyushmalari orqali amalga oshirilishi mumkin. Bular to'garaklar, klublar, studiyalar, seksiyalar, teatrlar, talabalar ilmiy jamiyatlari va boshqalar.

Talaballarga qo'shimcha ta'lim berish sharoitida darsdan keyingi ishlarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, ularni tegishli dasturlardan tashqari bilim va ko'nikmalarni egallashga intilishlariga sabab bo'ladi. Mashg'ulotlar talabalarni nafaqat faolligini rivojlantiradi, balki ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Ular ijodiy faoliyati jarayonida keltirib chiqaradi, mahsulot texnologiyasiga o'zgartirishlar kiritishga, o'z g'oyalarini amalga oshirishga o'rgatadi. Natijada, har bir tayyorlangan buyumning o'ziga xosligi borligini ko'rsatib beradi [9].

Talabalar ixtiro qilishda cheksizdir, ular ishlab chiqarilgan narsalarga katta iliqlik bilan munosabatda bo'lishadi, ular buni qilishdan zavqlanishadi, chunki tasavvurning mujassamlanish istagi ijodkorlikning haqiqiy asosi va harakatlantiruvchi tamoyilidir. To'garaklarning vazifasi talabalarining bilimni chuqurlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qiziqish va istaklarini qondirish, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, bo'sh vaqtini va hordiq chiqarishini tashkil etishdan iborat.

Ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirishda:

- Bo'lajak mutaxassislarni axborot texnologiyalarini ijodiy faoliyatda qo'llay bilish, axborotlarni yig'ish, tegishli papkalarda saqlash, qayta ishlash va ulardan ish jarayonlarida foydalanish usul va uslublarini egallashi, faoliyati davomida mustaqil, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;



- talabalarni to'garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishda bo'yicha dastlabki bilimlarini aniqlash;

- ijod, ijodkorlik, yaratuvchanlik va ijodiy fikrlash va ijodiy yondoshuv tushunchalarini aniqlash bo'yicha suhbat va so'rovnoma-anketalar bo'yicha aniqlash.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa tariqasida oliy ta'lim muassasalarida to'garaklardan foydalanish uchun uning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini bilish zarurligini aytish mumkin. Faollik va uning ifodalanish darajalari temperamentning kategoriyasi hisoblanib, insonni tug'ilgan paytidan to'uyuklik davrigacha bo'lgan oraliq vaqt davomida ekzo va endo omillarning ta'siri asosida turli dinamik ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Badiiy asarlar vositasida talabalarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishda mavjud pedagogik shart-sharoit hamda omillardan foydalanishning samarali yo'llarini izlash, adabiyot fani o'qituvchilariga metodik yordamni yo'lga qo'yishni o'rganish, shuningdek, talabalarda badiiy asarlarga nisbatan qiziqishni o'stirish kutilgan natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2016.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonlari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 01.02.2024 <https://lex.uz/docs/-4312785>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-son. 2022-yil 22-yanvar. <https://lex.uz/docs/-5841063>.

5. Мосунова Д.В. Развитие творческих способностей учащихся на занятиях по декоративно-прикладному творчеству в учреждениях дополнительного образования.

6. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской -Кулешов ой). – "Институт научной и педагогической информации РАО, "ЮРКОМПАНИ", 2012 г.

7. Alimov N. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shartlari // Kasb-hunar ta'limi. - T.: 2007. - № 3. - B. 30.

8. Boltayeva M. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish // Kadrlar tayyorlash milliy dasturi-davr talabi. NamDU ilmiy uslubiy maqolalar to'plami. - Namangan. 2000. - B. 45-47.

9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12515680>